

rubob chalib qo'shiq aytar, birov birov bilan shang'illab gaplashar, xullas, hamma yoq shodlikka to'lgan edi. Yil bo'yi hosil berish zahmatida charchagan yer jafokash ona kabi vazmin nafas rostlayotganga o'xshar, osmonda kech kuzning yelpig'ichdek yupqa, qat-qat bulutlari suzib borar, shamol ming yillardan beri bajarib kelgan yumushini davom ettirib, ularni ko'z ilg'amas, olis va go'zal manzil-larga olib ketar edi.

**Muallif izohi:** *Asarga 1966-yil 26-aprel, tong soat 3 dan 30 daqiqa o'lganda nuqta qo'yilgan. Ikki soatdan so'ng Toshkent zilzilasi ro'y bergan.*

## CHO'L HAVOSI

*„Xatlar yurak kaptari,  
Xatdir ko'ngil daftari“  
(Xalq qo'shig'idan)*

### Birinchi xat

Ziyoda!

Nega xat yozmay qo'ydingiz? O'qishlaringiz yaxshimi? Kechasi bilan stansiyadan g'isht tashidik. Mana, oxirgi yukni ham keltirib tashladim-u, xat yozishga o'tirdim. Qiziq, tun ishlasam ham charchoq sezmayapman. Kiprigimga qo'ngan uyqu gardini tong shabadası yuvib yubordi.

Siz hali cho'l bahorini ko'rganingiz yo'q... Mana, hozir xat yozyapman-u, to'xtab-to'xtab uzoq-uzoqlarga, osmonning chinni tovog'i to'ntirilgan ufqlarga tikilib qolaman. Hamma yoq lolazor! Kattakon qizil alvon yerdan bir qarich balandda sekin-sekin silkinib turganday.

Ziyoda, tong yulduzini ko'rganmisiz? Menga o'xshab soatlab tikilib o'tirganmisiz unga? Men uni har kuni ko'raman. Bundan yarim soatcha avval qora baxmalga qadalgan oppoq durdek yalt-yult etib ko'z qisishayotgan yulduzlar mudrab-mudrab oxiri so'ndi. Ufqda bittagina yorqin yulduz qoldi. Bu — tong yulduzi. U yerdan ko'zini uzmay uzoq porlab turdi. Men ham undan ko'zimni uzolmadim...

Qachonlardir shu yulduzni bir cho'pon yigit yerga olib tushgan deyishadi. Cho'pon malikaga oshiq bo'lib qolibdi-yu, ishq yo'lida o'limga ham rozi ekanini aytibdi. Shunda malika unga bajarib bo'lmaydigan shart qo'yib, osmondan tong yulduzini uzib tushishni talab qilibdi. Oshiqning do'stlari ko'p ekan. Ammo hech kim bu ishda unga yordam berolmabdi. Shunda onasi yigitga o'zining soch tolasidan yerdan yulduzgacha yetadigan arqon to'qib beribdi. Yigit

arqonga osilib chiqib, yulduzni uzib tushibdi. Ammo malika unga xiyonat qilib allaqachon erga chiqqan ekan. Oshiq malikadan ranjib yulduzni yana joyiga chiqarib qo'yibdi. Aytishlaricha, yulduz ham malikadan nafratlanadigan bo'lib qolgan ekan. U, malika uyquga ketishi bilan cho'g'dek portlay boshlar, uyg'onishi bilan yana so'nib qolarkan. O'shandan beri, tong yulduzining qachon chiqib, qachon botishini hech kim bilmaydi, deyishadi.

Negadir, har gal tong yulduzini ko'rsam shu afsonani eslayman-u, ko'z o'ngimda siz gavdalanasiz. Nazarimda, u kun sayin yerga yaqinlashib kelayotganday, quyoshning ilk nurlariga osilib pastga tushib olmoqchi bo'layotganday tuyuladi. Balki, siz bu satrlarni o'qiganingizda haliyom yosh bolaligim qolmaganidan, haliyam allaqanday afsonalarga ishonib yurishimdan kularsiz. Nima ham derdim... Odatimni bilasiz-ku...

Ziyoda! O'tgan kuni juda qiziq voqea bo'ldi: Hafiz keldi! Ha, Hafiz, butunlay keldi.

Kechqurun stansiyaga borgandim. Sement ortib bo'lishguncha dimiqib ketgan kabinaning ikkala eshigini lang ochib qo'ydim-da, zinaga o'tirib olib papiros cheka boshladim. Kechirasiz, Ziyoda, sizning bir so'zingiz bilan chekishni tashlab yuborgandim, lekin nima qilay, yana chekishimga ham o'zingiz sababchi bo'lyapsiz! Vokzal peronidagi kattakon osma soat tagida yerga ko'z tikib, sochlaringizni tortqilab o'ynab turganingizni eslasam, o'zim ham bilmay cheka boshlayman...

Xullas, sement ortishayotganida mashina zinasiga o'tirib olib xayol surardim. Kimdir narigi eshikdan qichqirib qoldi.

– „Bo'ston“ sovxoziga borasizmi, shofyor aka?

– Ha, – dedim qaramay. O'g'irlisam, u xayolimni o'g'irlab qo'yadiganday tuyuldi.

Yo'lovchi chamadonini olib kelgunicha ketib qolmasligimni iltimos qilganida ham qayrilib qaramay, bosh

silkib qo'ya qoldim. Yukni ortib bo'lishgunicha atrofnii aylanib keldim. Yo'lovchim allaqachon kabinaga chiqib olgan ekan. Kattakon qora chamadoniga suyanganicha xayolga cho'mib o'tirardi. Eshikni taraqlatib yopganimda menga bir qarab qo'ydi. Qaradi-yu, seskanib ketdi. Beixtiyor qad-dini rostladi. Bir qo'li bilan chamadonining bandiga, ikkin-chisi bilan eshik tutqichiga yopishdi, g'ira-shira qorong'i bo'lsa ham uning rangi o'chib ketganini ko'rdim. Hayron bo'lib tikilib qaradim: Hafiz! Qora kepkasini qoshigacha bostirib olibdi. Birpas ikkilanib turdim-da, motorni yurguzib yubordim. Mashina o'ydim-chuqur yo'lda hakkalab yura ketdi. Katta yo'lga chiqib olgach, Hafizga qarab qo'ydim. U hamon eshik tutqichini qo'yib yubormay oldinga tikilib o'tirardi. Men o'zimni bosib oldim. Hozir uning mendan xavotirlanib o'tirganini tushunib turganim uchun xotirjam qilib qo'ygim keldi.

– Tuzukmisiz, og'ayni?

Hafiz ko'z qirini tashlab sekin bosh silkib qo'ydi. Faralarni yoqdim.

– Qurilishga kelyapsizmi?

– Ha. Yordamchilar kerak deb eshitdim...

– Rost, bizga hammayam kerak. Yordamchilar ham, injenerlar ham...

Hafiz menga yalt etib qaradi. Tezlikni oshirdim. Ochiq derazadan kirayotgan-shamol sochimni tortqilay boshladi.

– O'qishingiz nima bo'ldi? – dedim o'ziga qaramay. U javob bermadi.

Bir chaqirimcha yurgach, mashinani asfalt yo'ldan o'ngga burib, pastikka tushib ketdim. Hafiz derazadan boshini chiqarib oldinga qarab borardi.

– Sovxozga mashina ko'p yuradimi?

– Kechasi bilan tinmaydi... To'g'ri Toshkentdan kelyapsizmi?

– Ha.

– Qalay?  
 – Yomon emas!  
 Savol-javoblar shu bilan tamom bo'ldi. Men ko'p nar-sani bilгим, ayniqsa, sizni, Ziyoda, Sizni so'ragim kelardi. Nachora, so'ramadim, yonimdagi Hafiz o'sha Hafiz edi...  
 Motorning bir tekis guvullashiga quloq solib boraverdim. Qorong'i quyuvlashib, yulduzlar ham uyg'onib qoldi. Gaz berdim. Mashina pishqirib oldinga intildi. Zulmat titrab-qaqshab chekina boshladi. Mashina chiroqlari allanimani pay-paslab topib olmoqchi bo'lgandek dam yo'ldan tashqariga chiqib ketadi, dam osmonga sapchiydi... O'ydim-chuqur joy-dan o'tib olgach, ancha tekis ketdik. Yana osmonga tikildim. Tugmachaday keladigan jajjigina yulduz uchdi. Bir zumda yulduzning o'zi ham, orqasidan ergashib kelayotgan o'q-yoy-dek ingichka izi ham zulmat qo'yniga singib ketdi.  
 Esingizdami, Ziyoda, qayiqda sayr qilib yurib osmonga tikilishni yaxshi ko'rardik. O'shanda oy ham, yulduzlar ham juft-juft bo'lib ko'rinardi ko'zimizga: biri osmonda, biri ko'lda...  
 Rulni bo'sh tutgancha borarkanman, shularni o'ylardim. Hafiz bo'lsa hamon qosh-qovog'ini uyib o'tirardi. Bir soat-cha yurgach, sovxozga yetib bordik. Mashinani yotoqxona eshigida to'xtatdim.

Kabina eshigini ochdim.

– Tushing.

Hafiz zimdan qarab qo'ydi.

– Meni qayerga olib kelding?

– Yotoqxonaga... – Hafizning chamadonini olib zinadan sakrab tushdim. – Qani, tezroq bo'la qoling.

Hafiz zinaga oyoq qo'yib bir lahza turib qoldi.

– Kadrlar bo'limi qayerda?

– Ertaga uchrashasiz...

Hafiz boshini quyi solib ketimdan ergashdi. Xonamga kirib chiroq yoqdim. Hafiz eshik yonida qimirlamay turaverdi. Chamadonini karavot tagiga surib qo'ydim.

– Kiravering.

Hafiz kepkasini yechdi.

– Kadrlar bo'limiga borishim kerak.

Kulib yubordim:

– Kadrlar bo'limi uxlab yotibdi.

Hafiz stulga o'tirdi.

– Bemalol yechinib yotavering, – dedim karavotga imo qilib. – Kech bo'lib qoldi. Yo'l yurib charchagansiz.

Hafiz ishonmay zimdan qarab qo'ydi.

– Sen-chi?

– Meni qo'yavering. Atyapman-ku, toliqqansiz. Dam oling.

Hafiz boshini quyi soldi. Uzoq jim bo'lib qoldi.

– Yechinavering, – dedim qistovga olib.

Hafiz karavotga o'tirib, qo'njli botinkasining ipini yechdi. Pidjagini yechib tashlab, shiftda uzoq tikilib yotdi. Keyin birdan o'rindan turib ketdi. Yelkamga qo'l tashladi.

– Sen... sen... endi bilsam, durust yigit ekansan.

Nima qilishimni bilmay qoldim. U bo'lsa hamon qo'yib yubormaydi. Titroq ovoz bilan hadeb takrorlaydi.

– Bilmagan ekanman. Sen... sen...

Nihoyat, u o'zini bosib oldi. Karavotga o'tirib papiros tutatdi.

– Menga qara, Botir, nega meni cho'lga tashlab kelmading? Yarim yo'lga kelganda mashinadan tushirib yuborsang bo'lmasmidi?..

– Qo'ysang-chi! – dedim xunobim oshib. – Bunaqa o'y yetti uxlab tushimga ham kirgani yo'q. Choy ichasanmi? Hafiz chuqur uf tortdi.

– Yo'q. Hali stansiyada ovqatlanib olganman.

– Bo'lmasa, dam ol.

Hafiz yana o'tirib oldi. Derazani ochib yubordim. Chirgalkalarning nag'masi yengil bahor shabadasiga mingashib xonaga yopirilib kirdi. Chirmandaday qizg'ish oy tirmasha-

tirmasha baqaterakning ustiga chiqib oldi. Olislarda qator tizilib kelayotgan mashinalarning chirog'i ko'rinadi. Dera-zadan tashqariga tikilganimcha xayol suraman.

Hafizning hozirgi gaplariga hayron bo'laman... Qiziq, oddiy qora qarg'a ham ikki yuz yil yasharkan. Odam shu parrandaning yarim umrini ko'radimi, yo'qmi-yu, ba'zi bi-rovlar arziyas, o'tkinchi ikir-chikirlar uchun bir-birini jazo-lash, o'ch olish kerak deb o'ylashadi. Nahotki, insonning insonga oqibati shunchalik bo'lsa?!

...Bir vaqt qayrilib qarasam, Hafiz haliyam boshini kaft-lari orasiga olib munkayib o'tiribdi.

– Uxlamaysanmi?

Hafiz boshini ko'tardi.

– Uyqum kelmayapti...

Qistab o'tirmadim. O'rmidan turib yonimga keldi. Devor-da osig'liq turgan suratigizga uzoq tikilib qoldi. Men ham tikildim.

– Botir, sen Ziyodaga munosibsan, – dedi u xayolchan pichirlab.

– Qo'ysang-chi, yigitlar bir-birini maqtasa yarashmaydi. Hafiz boshini og'ir chayqab qo'ydi.

– To'g'ri...

– Ziyodani ko'rdingmi? Yaxshi yuribdimi? – dedim uning gapini bo'lib.

– Ha, yuribdi. – Hafiz xo'rsinib qo'ydi.

Anchadan keyin sekin so'radi:

– Ziyoda bilan bolalikdan birga o'sganmisizlar?

Nima deyishimni bilmay qoldim. Unga, Botir bilan mak-tabdosh edik, degan bo'lsangiz kerak. Rost, siz qizlarning odatingiz shunaqa bo'ladi. Sevgingizni akam yoki qar-in-doshim deb tanishtirasiz.

Sizni yolg'onchi qilib qo'ymaslik uchun o'zim yolg'on gapirdim.

– Ha, sinfdosh edik.

Hafiz anchagacha lablarini qimtib o'tirdi. Shu tobda uning horiganini, qattiq horiganini sezdim.

– Yoting, Hafiz, – dedim yelkasiga qo'limni tashlab. – Ertadan ishga tushib ketasiz. Dam olvoling...

Hafiz horg'in ko'zlari bilan bir qarab qo'ydi-yu, karavot-ga yotdi. Men bo'lsam anchagacha uxlay olmadim. Siz bilan tanishuvimiz, nurga cho'mgan xiyobonlar, go'zal fontan – hammasi birma-bir ko'z oldimdan o'tdi.

Ziyoda, shuncha vaqt birga bo'libmiz-u, bir narsa o'rta-mizda sir bo'lib qolaveribdi. Siz meni tanishgan kunimizdan boshlab bilasiz. Ammo men sizni tanishmasimizdan ancha oldin ko'rgan edim. Siz Hafiz bilan mening o'rtamda qanday mojarolar bo'lib o'tganini ham bilmaysiz.

Men ikkinchi kursni bitirganingizda sizni tanigandim. Baxt kishiga yo'ldoshdek ergashib yursa ham, ba'zan uni o'zing ko'rmas ekansan. O'sha bahor oqshomida shu gap haqiqatan ham rost ekaniga ishonдим. O'sha kuni men o'z baxtimni – sizni uchratdim.

Esingizdami, shu kuni o'tirish qilgan edingiz. Men o'sha kechangizning chaqirilmagan mehmoni bo'ldim. Uyingizga kira olmasam ham sizni xayolan qutladim. O'sha paytda tak-si haydovchi bo'lganimga ham turib-turib suyunib ketaman.

Bir kuni institut yonidan ko'k chiroq yoqib o'tib keta-yotgan edim, kattakon guldasta ko'tarib olgan yum-yumaloq qiz shosha-pisha yo'l o'rtasida chiqib qo'lini uzatdi. Mash-i-nani to'xtatdim. Qiz orqa eshikni ochdi-da, qichqirdi:

– Yur, Ziyoda!

Bo'ychangina qiz atlas ko'ylagini hilpiratib zinadan yu-gurib tushdi. Uning tabassum yoyilgan chehrasiga tikilib turib, yuragimda allaqanday nozik titroq uyg'ondi. O'sha paytlarda mening juda g'alati odatim bor edi: qizlardan uyaldim. Notanish qiz u yoqda tursin, tanishlariga ham gapimni eplab gapira olmadim. Ammo xayolimda go'zal bir qizni sevishni orzu qilib yurardim. O'sha atlas ko'ylakli

qizni ko'rdim-u, xayolimdagi go'zal shu bo'ladi, degan fikr miyamga qattiq o'rnashib qoldi.

Bu – siz edingiz!

Siz orqa o'rindiqqa, dugonangizning yoniga o'tirdingiz.

– Bodomzor ko'chasiga! – deb buyurdi dugonangiz.

Taksi olachalpoq suv sepilgan asfalt ko'chadan yelib ketdi. Mashinani haydab boryapman-u, peshanamning tepasidagi kaftdek ko'zguga o'qtin-o'qtin qarab qo'yaman. Unda sizning aksingiz ko'rinadi. Ha, o'shanda ham siz baxtiyor edingiz. Quralay ko'zlaringizda o't bor edi. Dugonangiz bo'lsa, tinmay gapirib borardi:

– Oyimlarni zo'rg'a ko'ndirdim. Tavba, bugun Ziyodaning tug'ilgan kuni, ziyofat qilyapti, desam, sira ishonmaydilar. Qizlarni olib qochib ketadigan zamonlar o'tib ketgan desam, biram urishib berdilar!ki!

U xandon otib kuldi. Siz bo'lsangiz, indamay jilmayib bordingiz. Bora-borguncha bir og'iz ham gapirmadingiz. Men ham o'girilib qarashga botina olmadim.

Bodomzor ko'chasiga burlilishim bilan yana dugonangiz buyurdi:

– To'xtang!

Ikkovingiz tushib ketdingiz. Trotuar chetidagi ariqchadan hatlaganingizni, xomsuvoq qilingan pastak devorga yonboshlab turgan jiyda shoxlari ostidan ildam o'tib, zangori eshik yoniga borganingizni ko'rib turdim. Siz avval dugonangizni kiritib yubordingiz. Keyin o'zingiz ham ichkariga kirib ketdingiz. Loaqal bir marta qayrilib qaramadingiz. Mashina eshigining romiga tirsagimni qo'ygancha uzoq tikilib qoldim. Allaqanday kuch meni ichkariga – siz kirib ketgan eshikka chorlardi.

Quyosh ham jiyda shoxlari orasidan bir mo'raladi-yu, devor orqasiga o'zini tashlab yubordi. Jiydaning kumushsimon yaproqlari lov-lov yona boshladi. To'dalashib yurgan butlutlar atlas libos kiyib olgandek...

Bu yerda qancha turganimni bilmayman. Allakim kelib, taksi bo'shmi, deb so'radi. Yana birovi vokzalga olib borib qo'ying, deb yalindi. Hammasiga ham „bandman“ deb qo'ya qoldim. O'z xayolim, so'ngsiz xayollarim bilan band edim... Bir vaqt qarasam, qorong'i tushib qolibdi. Ichkaridan hech kim chiqmadi. Faqat sal xirillagan tovush bilan aytilgan ashula ovozi kelib turardi.

„Radio qo'yishyapti“, deb qo'ydim o'zimcha. Yana ancha o'tirib qoldim. So'ng istar-istamas motorni yurgizdim. Orqaga burildim-da mashinani sekin haydab ketdim.

Markaziy ko'chaga chiqib to'xtash joyiga borib turdim. O'zimdanda xunobim oshib papiros tutatdim.

Besh-olti qadam narida bir yigit tez-tez yurib keldi.

– Chekting.

Gugurt yoqib tutdim.

– Rahmat. Bo'shmisiz?

Indamasdan bosh silkib qo'ydim.

– Bir minut...

Yigit shunday dedi-da, ko'cha chetidagi magazin tomonga yugurib ketdi. Birozdan keyin uch kishi bo'lib qaytib chiqishdi. Haligi yigit bir to'rxalta shampan vinosi, araq shishalarni ko'tarib kelib, oldingi o'rindiqqa o'tirdi. Sheriklari orqaga joylashib olishdi.

– Qayerga borasizlar? – dedim motorni yurgizib.

– Bodomzor ko'chasini bilasizmi?

Mashinani yeldirib ketdim. Anchagacha hech kimdan sado chiqmadi. Nihoyat, orqada o'tirganlardan biri kulib qo'ydi.

– Kelinbolani – Ziyodaxonni tabriklar ekanmiz-da, bugun, Hafiz?

Yonimdagi yigit iljaydi. Beixtiyor orqaga o'girilib qaradim. Boshi mashina shiftiga tegay-tegay deb turgan novcha yigit ingichka bo'yniga yarashmagan uchburchak baqbaqasini liqillatib do'rilladi:

– Kelinbolalardan bittasini desang-chi, nima qilasan Hafizni kamsitib.

Uchchovlari xaxolab kulishdi. Hafizga birinchi marta diqqat bilan tikildim. Labining chekkasida yiltillab turgan bir juft tilla tishi sovuq ko'rinib ketdi ko'zimga. Indamay ketaverdim. Nahotki, bular o'sha qiz haqida, Ziyoda haqida gapirayotgan bo'lsa, degan savol ich-etimni kemirardi.

Ular xuddi eshigingiz yonida tushishdi-da, sizlarnikiga kirib ketishdi.

...O'sha kecha navbatchi edim. Taksi bilan shahar ko'chalarida uzoq aylanib yurdim. Qayerlarga borganimni, kimlarni qayoqqa eltib qo'rganimni hali ham yaxshi eslay olmayman. Xayolimda bu o'ydandan uzoqlashish kerak, qanday qilib bo'lmasin uzoqlashish kerak degan yagona fikr hukmron bo'lib qolgandi.

Kechirasiz, Ziyoda! O'shanda men sizni bilmasdim. Do'stlari shunday ekan, o'zi ham hayotga yengil qaraydigan qizlardan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. Ammo oradan ikki kun o'tgach, yana o'sha ko'chaga, o'sha jiyda tagidagi pastak zangori eshik yoniga borishga majbur bo'ldim. O'zim ham nimeligini bilmagan sirli kuch meni shu yerga sudrab kelardi.

Ziyoda! Eshigingizning yonida o'sadigan jiydani bilasiz. Ammo siz, ehtimol, unga e'tibor bermassiz. Shunaqa bo'lar-kan, o'zi. Odam o'ziga tanish, qadrdon narsalarni har kuni ko'raverib shu qadar ko'nikib ketadiki, e'tibor ham bermay qo'yadi. Payti kelib, ulardan uzoqlashib ketsang, shundaygina qalbingda chidab bo'lmas og'riq sezasan. Go'yo o'sha qadrdon narsalar tug'yon ko'tarib, o'z xotirasini talab qiladi...

Bilasizmi, Ziyoda, men o'sha jiydani sizdan ko'ra yaxshiroq taniyman. Uning har bir yaprog'i, har bir butog'i menga sirdosh. Men har kuni unga uzoq-uzoq tikilib o'tirardim. Sizing uydandan chiqishingizni, men uchun dunyoda aziz bo'lib qolgan siymongizni bir marta ko'rib qolishni orzu qilib kutardim.

Siz bo'lsangiz kitoblaringizni qo'titqilgancha uydandan chiqardingiz-da, hech qayoqqa qaramay avtobusga o'tirib jo'nab ketardingiz. Ko'nglimda shu tobda sizni to'xtatsam, aqalli bir og'iz gaplashsam derdim-u, lekin so'z qotishga, yo'lingizni to'sishga hayiqardim.

Ishonasizmi, sizni uch oygacha ana shunday kuzatib yurdim. Yana bir baxtli tasodif ro'y bermaganida bilmadim, qanchagacha cho'zilardi bu hol?

Bir kuni odatim bo'yicha mashinani to'xtatib institutdan chiqishingizni kutib turganimda o'zingiz kelib qoldingiz. „Bo'shmisiz?“ deb so'radingiz. Darrov eshikni ochdim. O'tirishingiz bilan kulib so'radim.

– Bodomzor ko'chasingami?

Hayron bo'lib qoldingiz.

– Ha, siz qayerdan bilasiz?

– Ko'changizning nomi chiroyli ekan, – dedim boshqa gap topolmay.

Sizing qoshingiz chimirildi, nimanidir o'ylab qoldingiz. Yana biroz yurgach, ko'pdan beri o'ylab yurgan gapimni aytdim:

– Kechirasiz, Ziyodaxon, kechikib bo'lsa ham tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman.

Bu gapdan sevinarsiz deb o'ylagandim. Yo'q, hayron bo'lib qoldingiz, nazarimda, allanimadan qo'rqib ketganday bo'ldingiz. Keyin ko'zlaringizni katta ochib menga tikildingiz:

– Nima, qiziq odam ekansiz-ku! Qayerdan bilasiz? Tani-magan, bilmagan odam... – dedingiz-u, jim qoldingiz.

– Nima, tanimagan odam tabriklasa yomonmi? Yaxshini tabriklaydilar-da, dedim.

Siz menga diqqat bilan tikilib qaradingiz. Nazarimda, o'ylab meni qayerda, qachon ko'rganingizni eslay olmadingiz. Keyin:

– O'zimni tanimaysiz-u, tug'ilgan kunimni qaydan bilasiz? – deb so'radingiz.

- O'sha kuni sizlarni uyga keltirib qo'ygandim...
- Shu bilan suhbatimiz ulanib ketdi. Institutga qaytishda ham o'zim olib kelib qo'ydim. Yana suhbatlashib keldik. Ha, zachyot daftaringiz uyda esingizdan chiqib qolgan ekan. „Shu daftar har kuni esingizdan chiqib qolsa edi“, deb o'ylayman ichimda.
- ...Ziyoda, men o'sha suhbatning har bir daqiqasini eslayman. Shu kuni mening baxt quyoshim kulib boqqan edi. Keyin nimalar bo'lganini o'zingiz yaxshi bilasiz.
- Har kuni institutdan chiqishingizni poylab turadigan bo'ldim. Sevishganlar atrofdagilarni ko'r deb o'ylaydi, deyishgani rost. Men hech kimning biz bilan ishi bo'lmayapti, hech kim bizni ko'rmayapti, deb o'ylardim. Bunday emas ekan. Bir kuni zina yonida tursam, birov bilagimdan mahkam qisib tortdi. O'girilib qaradim: Hafiz.
- Bir minutga mumkinmi? – U meni xoliroq joyga olib borgach, ko'zlarini tikandek qadab ta'kidladi:
- Menga qara bola! Pashsha bo'lma, tushundingmi? Men tushundim, lekin negadir yana so'radim.
- Nima?
- Yaxshilikcha tushunmasang, boshqachasiga tushuntirib qo'yaman. Bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qol!
- Nima deyapsiz o'zi?
- U qizga osilma deymen! Aravakashligingdan qolma! – Hafiz javobimni kutmay keskin burildi-da, institutga kirib ketdi.
- Turgan joyimda serrayib qoldim. Shu tobda men o'zimni juda ojiz his qildim. Rost, Ziyoda injener bo'ladi, Hafiz ham. Men bo'lsam oddiy „aravakash“... Tomog'inga bir narsa tiqilib u yoqqa ham bu yoqqa ham ketmay turib qoldim. Yonimga kelib qolganingizni ham sezmadman.
- Kechirasiz, – dedingiz jilmayib. – Ancha kuttirib qo'ydim.
- ...Nurga g'arq bo'lgan xiyobondan yurib keldik. Akat-

- siya yaproqlarining titroq soyasini bosib borarkanmiz, siz ham, men ham o'z xayollarimiz bilan band edik. Kim bilsin, balki, ikkovimiz ham bir narsani – oydin istiqbolimizni o'ylardikmi. Siz yo'l-yo'lakay menga qarab-qarab qo'ydingiz-da, sekin so'radingiz:
- Nega xomushsiz?
- Ko'zlaringizga tikildim. Siz beozor jilmayib turardingiz. Ziyoda, bilasizmi, tabassumingizni o'shanda quyoshga o'xshatgandim. Rost, sizning bir marta kulib boqishingiz har qanday shubhani ham yurakdan surib chiqarardi.
- O'sha kuni institutdan ko'lgacha piyoda kelganimiz esingizdami? Suv o'pib yotgan tik qirg'oqqa kelib o'tirdik. Ko'l sekin-sekin mavjlanib turardi. Suv yuziga oy qalqib chiqdi.
- Oy to'libdi, – dedim sekin.
- Bunisi aksi, asli osmonda, – dedingiz jilmayib. Monand bir so'z izlab, chehrangizga maftun o'tirardim.
- Ha, aksi... Lekin bir-biridan ko'z uzmaydi...
- Siz asta, yengilgina, juda beg'ubor kuldingiz. Ko'nglim yorishib ketdi.
- Shu tobda quvnoq kulgi eshitildi. Kichkinagina qayiq suv hovuchlab turgan majnuntol yaproqlari orasidan suzib chiqdi. Yigit shoshilmay eshkak eshar, uning qarshisida o'tirgan oppoq durrachali qiz esa egilib, barmoqlarini suvga tegizib borardi.
- Qayiq o'tib ketdi, ikkovimiz uning ketidan qarab qoldik.
- Ziyoda, – dedim tutilib-tutilib. – Siz... Siz meni shunchaki... Yo'q... Siz meni o'zingizga loyiq deb bilasizmi... yoki...
- U yog'ini ayolmadim. Siz ko'zlarimga shunday ma'noli, shunday g'uborsiz tikildingizki... Yuragim gupullab ura boshladi. Entikib qoldim.
- Vujudimni qamragan iliq titroqni bazo'r to'xtatib, sizni bag'ringa tortdim. Ko'zlaringizni yashirib, ko'ksimga bosh qo'ydingiz-u, negadir yig'lab yubordingiz.

Agar yigit ham, qiz ham bir-birini sevsa, muhabbatiga sodiq qolsa, hech qanday kuch ularni bir-biridan ayirtolmas ekan. Keyinchalik Hafiz bilan bo'lgan mojarolarda ham buni, ayniqsa, ishonдим.

Ziyoda! Xatim cho'zilib ketdi. Ancha vaqtingizni oldim, kechirasiz. O'zim ham hozir ishga chiqishim kerak. Bugundan boshlab shag'al tashiyim.

Xayr, Ziyoda! Javobingizni kutaman.

### Ikkinchi xat

Salom, Ziyoda!

Betonchilar ishini qizitib yuborishdi. Shag'al yetkazib ulgur olmayapmiz. Ajoyib! Cho'lning qoq o'rtasida kattakon internat binosi qad ko'tardi. Unda sovxoz ishchilarining bolalari o'qiydi. Qanday yaxshi-a!

Inson bolasi dunyoga kelganidan keyin, o'zidan hech bo'lmasa, bitta yodgorlik qoldirib ketishi kerak, yashashning ma'nisi ham shu, der edi otam. Aytganday, siz uni hali tanimaysiz. Otam urushda yurganida onam boshqa kishiga turmushga chiqib ketgan ekan. O'shanda men uch yashar go'dak ekanman... Ammanning qo'lida o'sdim. Otam qaytib kelganidan keyin boshqa oila qurmadi. Endi bilsam, faqat meni deb shunday qilgan ekan. Esimni tanishim bilan otamning ishonchini oqlashga ahd qildim. Endi shunga erishyapman, shekilli. Har xatida duo. Cho'lni bo'ston qilishdek katta ishga hissa qo'shayotganim uchun quvonadi. Sizlar o'zingizga haykal quryapsiz, deydi. Rostdan ham shundaymikan-a?

...Ziyoda! Xatingiz bugun ham kelmadi. Qishda yozgan xatlarimning bittasiga ham javob olmadim. Sizga nima bo'ldi, Ziyoda!... Juda xavotirlanib yurgandim. Rostimni aytсам, Hafiz kelganiga xursand bo'ldim. U sizning sog'salomat yurganingizni aytdi. Bilaman, qizlar yalintirishni yaxshi ko'rishadi. Lekin xatim javobsiz qolsa ham har kuni

xat yozmasam nimanidir yo'qotib qo'yayotganga o'xshayman. Mana bugun ham yotoqxonaga qaytdim-u, xat yozishga o'tirdim. Qontalash osmon xiralashib, adirlar orqasidan etagini sudrab oqshom kela boshladi. Chiroqni yoqdim. Xatni nimadan boshlashni bilmay, uzoq o'ylanib qoldim.

Bahor havosini bilasiz-ku! Birdan shamol keldi. Dera-zamni taqillatib, darpardani boshiga ilganicha sho'xlik qila boshladi. Shu tobda siz bilan uzoq yili bahorda lolaga chiqib, qirda jala ostida qolib ketganimizni esladim.

...Mana, hozir ham momaqaldiroq boshlandi. Jala quyib berdi, chiroq o'chib qoldi. Nima qilishimni bilmay tur-ganimda cho'lga ilk bor kelganimizda sham yoqqanimiz esimga tushib qoldi. Tumbochkamni titkilay-titkilay to'rt enlikkina sham topib yoqdim. Uning xira yog'dusida xatim-ni davom ettirdim.

Men xat yozyapman, sham esa o'zining nozik tilchasi bilan shu satrlarni yalab-yalab qurityapti.

Xatimning shu yeriga kelganimda birdan derazalar zirillab ketdi. Yashin shamolda qaltirab turgan mirzaterak ustida ildiz otdi. Uning sutrang yog'dusi uyning burchak-burchaklarigacha yoritib yubordi. Ammo yashinning yorqin nuri bevafoqlik qilib shu ondayoq g'oyib bo'ldi. Sham esa hamon chirsillab-chir-sillab yonib turibdi. Hozir menga o'sha ulkan yashindan ko'ra tugab borayotgan shu o'jiz sham ming marta afzalroq...

...Muhabbat kishiga hayotda o'z o'rnini topib olishga yordam berarkan. O'shanda Hafiz meni „aravakash“ deb kamsitganidan keyin cho'lga ketmoqchi bo'lganimni sizga aytganman.

Esingizdami, o'sha kuni yomg'irdan qochib temir yo'l-chilar saroyiga kirib ikkalamiz uzoq suhbatlashdik. Cho'lga ketishimni eshitib hayron qoldingiz. Menga ishonmagandek bo'ldingiz, nazarimda. Ammo biz bir-birimizni to'g'ri tu-shuna olardik. Rost, sizni qoldirib ketish menga ham oson emasdi. Lekin shunday qilishim kerak edi... Siz rozi bo'li-

dingiz. Otamni ham ko'ndirdim bunga. Faqat ishxonada yana ozroq ishlab turishimni so'rashdi.

Ta'bim xira bo'lib yarim kechada uyga qaytib kelayotgan edim. Shamol aralash laylakqor yog'ardi. Osmondan to'zib tushayotgan „tovuq patlari“ bir zum ham to'xtamaydi, tug'yon uradi. Uchqunlar chiroq nuridan qochib qutulishga uringan-day tezgina asfaltga qo'nadi. Oxirgi tramvaylar sudralib bora-di. Kimsasiz ko'chalarga muzdek sukunat qo'ngan.

Pastqam ko'chadan chiqaverishda yo'l chetida cho'zilib yotgan kishiga ko'zim tushdi. Mashinani to'xtatdim. Yugurib borib qo'limni bo'ynidan o'tkazib boshini ko'tardim. Aftini yorug'ga solib ko'rishim bilan yana joyiga yotqizib qo'ydim. Bu – Hafiz edi. Kechagina meni haqoratlagan, menga tahdid qilgan Hafiz mast bo'lib cho'zilib yotardi.

Borib mashinaga o'tirdim. Jilib ellik qadamcha bordim-u, yana to'xtab qoldim.

Hamon qor yog'adi, sovuq shamol izz'iydi. Ko'z oldim-da yana Hafiz paydo bo'ldi... Paltosidan botinkasigacha qorga burkangan. Quloq, bo'yinlari qizarib ketgan. Boshida oddiy kepka ham yo'q...

Birdan o'zimni pastkash kishi hisobladim. Shartta mashinani burib orqaga haydadim. Hafizni ko'tarib orqa o'rindiqqa yotqizib qo'ydim.

Otam xavotir ola-ola endi ko'zi ilingan ekan. Bizlarni ko'rib qo'rqib ketdi.

– Kim bu?

– O'rtog'im, – dedim pichirlab. – Umrda ichganini ko'rmagandim. Bilmadim, bu safar...

Otam afsuslanib bosh chayqab qo'ydi. Hafizni bir amal-lab yechintirib yotqizdim.

Hafiz peshinga yaqin uyg'ondi.

– Suv, – dedi xirillab.

Suvni ichib bo'lgach, yostiqaqqa boshini tashladi. Ko'zini yarim ochib, birpas tikilib yotdi-da, sakrab turib ketdi.

– Bemalol yotavering, – dedim xotirjamlik bilan.

Hafizning labi burildi.

– Nega meni bu yerga olib kelding? Mayna qilmoqchi bo'ldingmi? Men senga mayna bo'lib qoldimmi?

Hafiz bolaxonador qilib so'kib ketdi. Hech kimdan bunal-chalik haqorat eshitmagandim. Yaxshiyamki, otam ertalab ishga ketgan edi.

– Vijdon bormi sizda, Hafiz? – dedim bo'g'ilib.

– Vijdonni ko'rsatib qo'yaman senga!

Hafiz apil-tapil kiyindi, gandaraklab chiqib ketdi. Bu haq-da o'ylamaslikka harchand harakat qilsam ham kun bo'yi garang bo'lib yurdim.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, Hafiz rostdan ham men bilan „gaplashib qo'ydi“.

Har kuni kechqurun teatr maydonidagi to'xtash joyiga taksini qo'yib, kafeda ovqatlanib chiqadigan odatim bor edi. Bir kuni kafedan chiqsam, Hafiz eshik yonida papiros tutatib turgan ekan. U meni zimdan kuzatib qoldi. Men bo'lsam, taksini haydab ketdim. Ertasiga ham uni shu yerda uchrat-dim. Uchinchi kuni ovqatlanib chiqib endi mashina eshigini ochgan ham edimki, Hafiz kelib o'tirib oldi.

– Qo'yliqqa! – dedi jerkib.

– Shahardan tashqariga chiqish mumkin emas. Vaqtida garajga qaytishim kerak.

– Qo'rqma, sen mishiqi bilan olishib o'tirishni o'zimga ep ko'rmayman, yuraver.

Shu gap uchun uni dunyoning narigi chekkasiga oborib tashlashga ham rozi bo'ldim.

– Bo'pti!

Mashina asfalt yo'ldan unsiz uchdi. Simyog'ochlar uchidagi lampochkalar boshim tepasida pirpirab aylana boshladi. Peshanam qarshisida turgan kichkina oynaga qarab qo'ydim. Unda sizning, hov o'sha birinchi marta uchrashganimizdagi sizning aksingiz o'rnida Hafiz kinoya bilan iljayib turardi.

– Botir deganing shumi hali! Buning nimasi botir!  
Hafiz qo‘lini paltosining cho‘ntagiga tiqib oyog‘ini o‘ynata boshladi.

– Menga qara, – dedi ovozini pastlatib, – mayli, biz seni urmaymiz. Ammo bugundan boshlab qadamingni bilib bos... O‘zingga o‘xshagan aravakashlardan yuztasini aylantirsang ham ishim yo‘q. Lekin manaman degan qizimizga ko‘z olaytiradigan bo‘lsang... – Hafiz tishini g‘ijirlatib ta‘kidladi: – Ziyodadan naritroq yur, tushundingmi?

O‘n qadamcha narida, ko‘prik tagidan o‘tib muzlarni parchalab shovullab oqayotgan anhorga tikilib qoldim. To‘lqinlar yuzida to‘lin oy qalqib turardi. Bitdan ko‘z o‘ngimda siz jonlandingiz. Fikrim shunchalar ravshan, shunchalar yorqin bo‘lib ketdiki, o‘zimni shunchalar quvnoq, shunchalar yengil sezdimki...

...Eh, Ziyoda, Ziyoda! Hozir bular mening nimani o‘ylayotganimni, kimni o‘ylayotganimni tushunsa edi... Men kichkinagina ko‘zgudan ma‘yus jilmayib turgan aziz siymon-gizni o‘ylardim. O‘sha charog‘on xiyobonni, o‘sha oydin kechada ikkovimiz sayr qilgan ko‘lni, o‘sha uchar yulduzlar bilan to‘lgan osmonni o‘ylardim. O‘zim entika-entika takrorlagan so‘zlarimni o‘ylardim. „Ziyoda, o‘zimmikisiz! Yo‘q... Sizni hech kimga bermayman, bermayman...“ Hozir men o‘sha zangori eshikni, xomsuvoq qilingan devorga yonboshlagan kumush yaproqli jiydani o‘ylardim... Ilk bor ko‘ksimga bosh qo‘yganingizda ko‘zlaringizda qalqigan yoshni o‘ylardim. Qarshimda turgan Hafizni ham, naynovni ham ko‘rmasdim. Mening ko‘z o‘ngimda yolg‘iz siz turardingiz...

Hafiz ko‘rsatkich barmog‘ini ilgak qilib, dahanimdan silkitdi.

– Tushundingmi?

Men uning ko‘zlariga uzoq tikilib qoldim. Yo‘q, bu ko‘zlarda g‘azab emas, xavotir bor edi. U meni qo‘rqadi, tiz

Uni mashinadan haydab tushirib yuborgim keldi-yu, lekin noiloj edim. Nachora, men oddiy bir aravakashman. Hafizning buyrug‘ini bajarishga majburman...

Alam bilan ko‘zimni chirt yumib ochdim. Xayolimda yana siz jonlandingiz. Siz ko‘z o‘ngimda hamon o‘sha beg‘ubor tabassum bilan jilmayib turardingiz...

Qo‘yliqqa yetishimizga ozgina qolganda bizdan yuz qadamcha oldinda yelib kelayotgan „Pobeda“ chapga burildi. Shahardan chiqaverishda shu mashina oldimizga tushib olgandi... Negadir Hafiz ham qulog‘imga egilib xirilladi.

– Chapga!

Tormoz bermasdan keskin burildim. Hafiz menga suyanib qoldi. Afimga qarab sovuq iljayib qo‘ydi. Ikki chetida baqateraklar qaltirab turgan qorong‘i ko‘chadan yelib ketdim. Oldinda allaqanday mashinaning orqa chiroqlari qizarib ko‘rindi. Yaqinroq kelib, tor yog‘och ko‘prik ustida to‘xtab turgan jigarrang „Pobeda“ni ko‘rdim. Bu haligi mashina edi. Kelib-kelib ko‘prik ustida ham to‘xtaydimi? Ketma-ket signal berdim.

Hafiz bilagimdan tutib, xirillab kuldi.

– Qo‘ysang-chi, qiyqillatib nima qilasan.

Unga qaramadim. Yana signal berdim.

Hafiz ikkala qo‘limni ombirdek qisib oldi.

– Tush bu yoqqa!

Rulni mahkam ushlagancha o‘tiraverdim. „Pobeda“ning eshigi taraqlab yopildi. Chiroqdan ko‘zini pana qilib, paltosining yoqasini ko‘tarib olgan novcha yigit shu tomonga kelaverdi. Tanidim. Bu o‘sha – siznikiga Hafiz bilan birga borgan naynov edi. U shoshilmay kelib, chap eshikni ochdi. Ikkovlashib meni sudrab tushishdi. Shundaygina Hafiz meni bu yerga qasddan boshlab kelganini tushundim.

Hafizga achchiq qilib, bu yerga kelib qolganimga endi afsuslandim. Hozir ulardan har nima kutish mumkin edi.

Naynov butun gavdasi bilan egilib yuzimga qaradi.

cho'kadi, uzr so'raydi, yalinadi, deb o'ylardi-yu, o'zi atrofga olazarak bo'lib qarar, g'azabdan emas, qo'rquvdan titrardi. Bundaylar asli qo'rqoq bo'ladi.

Hayronman, negadir birdan jinnilardek kula boshladim. Kuyib ketgan suyakdek qorayib qolgan baqaterak shoxlarining ingrashi ham, uvullayotgan shamol ham eshitilmay qoldi. Menga tahdid qilayotgan Hafiz ham, uning do'sti ham zum'o'tmay g'oyib bo'ldi.

Ko'zimga ishonmay, hayron bo'lib qoldim. „Pobeda“ motori gurullay boshlagandagina o'zimga keldim. Ko'prik ustida – mashinaning qarshisida unga to'qnash kelib qolgan eshagarava turar, quloqchimini bostirib kiyib olgan chol chiroqdan qamashgan ko'zlarini kafti bilan to'sib, oldinga engashib qarar, mashinani tor ko'prik oldida qoldingan olifalarga baqirib, o'zicha koyir edi. „Pobeda“ shiddat bilan tisarilib orqaga burildi-yu, shahar tomon yelib ketdi. Chol ham kalish-mahsi kiygan oyog'i bilan eshakning soniga tepa-tepa jo'nab qoldi. Keyin hamma yoqqa jimjit sukunat cho'kdi. Baqaterak ustida bezovtalanib qag'illayotgan qarq'alarining ham uni o'chdi...

O'shandan beri Hafizni ko'rmagan edim. Shunisi qiziqki, u cho'lga kelgan kuniyoq eng avval menga duch keldi. Meni ko'rib mashinamdan tushib ketmoqchi bo'lgani, yo'l bo'yi bir og'iz gapirmagani, sovxozga mashina bo'ladimi, deb xavotirlanib so'rab qo'ygani, nihoyat, xijolat bo'lib, mendan o'zini olib qochib yurganining sababi shu edi. U Botir mendan o'ch oladi, deb o'ylardi chog'i.

Qiziq, uning o'sha ishi o'ch olishga arziydimi?

### Uchinchi xat

Salom, azizim!

...Oldingizda juda uyatliman. Axir, shunchalik orziqib kutgan xatingizni olsam-u, vaqtida javob yozolmasam-al.. Turib-turib o'zimga kor qilib ketadi.

Esingizdami, olcha gullashini sabrsizlik bilan kutar-

dingiz. O'tgan bahor Do'mbirabodga – ammamlarnikiga borib ikkovimiz olchazorda sayr qilgandik. Mana, cho'lda ham olcha gulladi. Oppoq munchoq taqqan nozik nihollarining muattar isi xiyobon tepasida qanot qoqa boshladi. Darrov qosh ham qorayadi. Rang o'chgan osmonga uvada bulutlar quvishib chiqqa boshladi.

Kun bo'yi qurilishda ishlagan yigit-qizlar quyoshni topib olishmoqchi bo'lganday kunbotar tomonga ketib qolishdi. Shamolda silkinayotgan qizil durrachalar adir orqasiga cho'kib ketdi. Elas-elas quloqqa chalinayotgan quvnoq qo'shiq sadolarigina tinmaydi.

...Yillar o'jar bo'larkan. Umrning har bir daqiqasini qadrlash kerak ekan... Bir yil ichida qilgan ishlarimizni o'ylasam, shodlanib ketaman. Kechagina sarob jimirlagan yerlarda bugun ozmuncha binolar qad ko'tardimi, ozmuncha olchazorlar yashnadimi!..

Ziyoda, o'zimiz qilgan ishlar bilan maqtanmayman, suyunaman, chin yurakdan suyunaman.

Bir mahal shosha-pisha Hafiz kelib qoldi.

– Stansiyadan telefon qilishibdi. Taxta kelganimish. Garajga borsam, shofyorlar har yoqqa tarqab ketishibdi. Mashinang tayyormi, Botir?

Istar-istamas o'rimdan turdim. Bu – Hafiz bilan birinchi marta reysga chiqishim edi.

Stansiyaga yetib kelishimiz bilan yomg'ir quyib berdi. Taxtani ortib bo'lguncha ikkovimiz ham terlab-pishib ketdik. Yarim kechaga yaqin yo'lga tushdik.

Yo'l birpasda toyg'anoq bo'lib ketibdi. Pastak bulutlardan yergacha tortilgan yomg'ir to'riga tikilib jimgina borardik. Zulmat shunchalik quyuoqki, osmon ham, yer ham qorakuyaga chaplab tashlangandek, olisda majjon-marjon chiroqlar ko'zga chalinadi.

Eh, Mirzacho'l, Mirzacho'l! Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan sahrolar haqida ozmuncha afsonalar

to'qiganmi bobolarimiz! Odamlarning yuragiga g'ulg'ula solgan sen emasmiding? Tuya karvoni horg'in qo'ng'iroqlarini jaranglatib o'tib ketayotganida olisda darveshning shami ko'rinsa, tuyakashlar vasvasaga tushmasmidi? Ming yillardan beri o'limni kutgan vahshiydek hansirab yotgan sen emasmiding? Insonning qudratini ko'rib qo'y. Ko'ksingga oltin marjon taqib qo'ygan ham, jamolingga pardoz berayotgan ham inson bo'ladi.

Qani endi, cho'l tilimga tushunsa-yu, hozir uning qulog'iga shularni hayqirsam. Rost-da, yuragi bor odam bu yerlardan tinchgina o'tib ketolmaydi. Hayqirg'ing keladi!

Hafizni gapga soldim:

– Cho'l yoqdimi sizga?

Nimagadir Hafizning ta'bi tirriq o'tirardi. Savolimni yaxshi eshitmadi:

– A?

– Nimani o'ylayapsiz?

Hafiz anchagacha indamay bordi-da, bir nima esiga tushgandek egilib qo'yin cho'ntagini kavlay boshladi. Allanimani olib uzatdi.

– Ma, olib qo'y.

Qorong'ida ko'rmadim.

– Nima bu?

Olib qo'yaver, o'zingniki.

Xat ekan. Qalingina paket.

– O'zingniki, – dedi Hafiz yana. – Qishda yuborgan xatlarim.

Tanidim. O'zinning xatim... Tushundim... Qishda yozgan xatlarim nega javobsiz qolganini ham, siz mendan nega xafa bo'lib yurganingizni ham – hammasini tushundim. Cho'lga kelganidan beri Hafizga birinchi marta nafratlanib tikildim. Hafiz boshini egib, jim o'tirardi.

– Bu mening oxirgi choram edi, – dedi u eshitar-eshitilmas, – Bilaman, birovning xatiga tegish nomardlik. Lekin o'shanda ko'zimga hech nima ko'rinnmasdi.

Hafiz javob kutib qarab-qarab qo'ydi. Indamay ketaverdim. Mayli, bir yo'la yuragini bo'shatib olsin, dedim.

– O'sha kezlari yuragimda ho'l o'tin tutab yotardi: avval yondi, keyin burqsidi, undan keyin o'chib qoldi... Ziyoda bilan ochiqchasiga gaplashganimizdan keyin shunday bo'ldi.

– Imtihonlarni topshirib bo'lgan kuni guruhimiz bilan yangi spektaklga bordik. Teatrdan chiqishimiz bilan Ziyodani kuzatib qo'yishni taklif qildim.

– Rahmat, qizlar bilan ketaveraman, – dedi.

– Nima, men bilan ketishga qo'rqasizmi? – dedim o'smoqchilab.

– Nega qo'rqay, odam ham odamdan qo'rqadimi?

– Yuring bo'lmasa, – dedim-da, sudragudek bo'lib yetaklab ketdim.

Men birinchi savoldayoq Ziyodani lol qilib qo'yishni xohlardim.

– Botirdan xat kelib turibdimi? – dedim kinoya bilan.

Ziyoda menga hayratlanib tikiladi, qo'rqib ketadi, deb o'yलगandim. Yo'q, qaytilib ham qaramay ketaverdi. Uch-to'rt qadam yurgach, javob berdi:

– Ha, kelib turibdi.

Nima deyishimni bilmay qoldim.

– Ziyoda, siz berahmsiz.

Ziyoda yana churq etmay ketaverdi.

– O'zingiz o'ylang, axir... – dedim.

U hamon soqov edi. Toqatim toq bo'ldi.

– Botiringiz qo'rqqanidan cho'lga qochvordim.

Ziyoda g'alati iljaydi.

– Mard bo'lsangiz, cho'lga, Botiming yoniga borib bir oy ishlab ko'ring-chi. Qochgani joy topolmay qolasiz!

Boshimga gupullab qon urdi. Ziyodani mahkam ushlab oldim.

– O', ichidan pishgan qiz! Bilib qo'y, men bir ishga kirishsam, oxiriga yetkazmay qo'yman.

O'zimni o'nglab olgunimcha Ziyoda odamlar orasidan o'tib, trolleybusga chiqib ketdi...

...Hafiz gapida to'xtab menga qarab-qarab qo'ydi. Nazarimda, u mening so'kinishimni, biron nima bilan boshiga tushirib qolishimni kutardi.

Qiziq, Hafiz hikoyasini boshlaganida qanchalik g'azablangan bo'lsam, hozir yuragimda zarracha xijillik qolmagan edi. Men bir vaqtlar otamdan eshitgan gaplarni esladim. Odam butun boshli xazinasini yo'qotsang, yig'la, o'zingni tog'-toshlarga Agar sevgilingni yo'qotsang, yig'la, o'zingni tog'-toshlarga ur! Mabodo inson umidini, ishonchini yo'qotib qo'ysa, unda yashashning ma'nisi qolmaydi.

Rosti ham shu-da, Ziyoda! Hozir mening qalbidagi ishonch rashkni surib yuborgandi. Yo'ldan ko'zimni uzmay indamay boraverdim. Yomg'ir tinib qoldi. „MAZ“ yomg'irni allaqachon simirib ketgan yo'ldan borardi. So'ramasam ham Hafizning o'zi yuragidagini to'kib solardi.

– O'shandan boshlab men sening yengganingni tan ol-dim. G'ururim yo'l qo'ymasa ham yuragim sezib turardi. Men mard odamni yaxshi ko'raman. Ammo o'zim nomard-lik qilib qo'ydim: institutga borgan xatingni o'g'irladim. Rosti – bu kundosh xotinlarning ishi... Nomardlik qilishga qilib qo'ydim-u, aybimni yuvish yo'lini topolmay yurdim. Xatni Ziyodaga berishga g'ururim yo'l qo'ymadi. Oxiri, o'zingga topshirib qo'yarman, dedim.

Men Hafizga kinoya bilan qarab qo'ydim. U sezmad. Hozir o'z xayoli bilan band edi.

– Botir, balki ishonmassan. Bu yerga Ziyodaning ta'na-si uchungina keldi, deb o'ylama! Botir... Dunyoda do'sting yaxshi bo'lishi kerak ekan. Kursimizda yaxshi yigitlar ko'p edi. Lekin men ular bilan gaplashgim kelmasdi. Yoshlikning davrini surib qolgim kelardi. O'yin-kulgiga berilib ketib, o'qishdan ham ko'nglim sovidi. Ketma-ket uchta imtihondan yiqildim. Keyin meni bir yilga institutdan haydashdi.

Hafiz o'sha xotiralarni unutilshga ahd qilgandek, chor atrofni to'yib-to'yib ko'rib olmoqchi bo'lgandek, kabinadan boshini chiqardi.

– Men cho'lni butunlay boshqacha tasavvur qilib yurardim. Yanglishgan ekanman.

– Shunaqa, Hafiz... Cho'l havosi hammaga ham ta'sir qiladi, – dedim.

Hafiz jilmaydi:

– Mana shu yerda birpas to'xtat!

– Yarim kecha bo'lib ketdi. Ertalab azonlab tag'in ishga chiqish kerak...

Hafiz indamadi. Tezlikni yana oshirdim. Birdan orqa g'ildirakning yerga dukullab urilib ketayotganini sezib qoldim. Tormoz berdim.

– Nima gap? – Hafiz menga hayron bo'lib qaradi.

– Rostdan ham to'xtaydigan bo'ldik – ballon bo'shab ketyapti.

Ikkalamiz kabinadan baravar sakrab tushdik. G'ildirak borgan sayin yerga qapishib borardi.

Hafiz etigi bilan ballonni tepdi.

– Padariga qusur!

Men ham ta'bim xira bo'lib najot kutganday atrofga alangladim. Chigirtkalar bir-biriga gal bermay chirillaydi. Yomg'irdan keyin esadigan mayin shabada havodagi rutubatni supurib ketgandi. Ko'katlar isi anqiydi. Bulut orqasidan kulchadek oy ham ko'rindi.

– Nima qilamiz endi? – Hafiz kepkasini yechib peshana terini artdi. – Zapas kamera bormidi?

O'rindiqning tagini titkilab kamerani sudrab chiqdim.

– Domkratni oling, lattaga o'rog'lik turibdi, – dedim kabinaga imo qilib, Hafiz domkratni ko'tarib chiqdi.

Loy-balchiq bo'lib ketgan g'ildirakni ajratib olamiz, deb ikkovimiz ham terlab-pishib ketdik. Hadeganda chiqaverma-gach, Hafiz tutoqdi.

– Lom qani?.. – Mendan javob kutmay lomni olib chiqdi-da, ichkari tomondan gursullatib ura boshladi.

– Shoshmang, – dedim nafasim bo'g'zimga tiqilib. – Birpas dam olaylik.

Turgan yerimizda papiros tutatdik. Hafiz etigiga yopishgan loyni sidirdi. Ikkalamizning ham ta'bimiz tirriq bo'lib, churq etmasdik.

– Oy past-baland yerlarga xomush tikilib turdi-da, bulut orqasiga o'tib oldi. Biz tag'in ishga kirishib ketdik. Hafiz lomni o'qqa tirab turib g'ildirakni itardi. Men ikki qo'llab torta boshladim.

– Ke, baravariga olaylik... Bir, ikki, uch!

G'ildirak birdan chiqib ketdi. Zarb bilan uch-to'rt qadam nariga chalqancha yiqildim. Og'ir g'ildirak ustimga ag'darildi. Qichqirib yuborganimni eshitib, Hafiz qo'rqib ketdi. Urina-surina g'ildirakni surdi. Boshim gangrab, ko'zim tina boshladi. Hafiz meni suyab turg'izdi. Chiroq yorug'iga kelib o'zim ham qo'rqib ketdim. O'ng qo'lim teskarisiga qiyshayib ketgandek edi. Qayerim og'riyotganini aniq bilmadim. Ko'nglim ayniy boshladi.

– Qo'ying, birpas, – dedim.

Hafiz qo'yib yubormadi. Ko'nglim behud bo'laverdi. Suv ichгим kelardi.

Bu yerda suv yo'qligini bilsam ham „suv“ deb yubordim.

Negadir Hafizning javobi uzoq-uzoqlardan eshitildi:

– Bardam bo'l, Botir! Hozir...

Osmonga tikildim. Boshimning qoq tepasida sarg'ish dog' ko'rindi. Oy bo'lsa kerak... Dog' qoraya-qoraya zulmat ichiga sho'ng'ib ketdi...

Ko'zimni ochganimda eng avval oppoq narsani ko'rdim. Tikilib qaradim: xonamning shifti ekan. Qulog'im tagida qo'ng'iroqdek ovoz jarangladi:

– Ko'zingizni oching-e! O'rtog'ingiz hammani shoshirib qo'ydi-ku.

Oq xalat kiygan nozik qiz boshimga egildi. Uning nimasidir, qayeridir sizga o'xshardi. Oq-sariqdan kelgan yuzimi, jilmayib turishimi.

– Ziyoda, – dedim pichirlab. Qiz qulog'ini tutdi.

– Nima deysiz?

– Suv, – dedim tamshanib. Qiz jilmaydi.

– Mumkin emas...

Eshik ochildi.

Qiz yugurib bordi.

– Yo'q, kirmaysiz! Hech nima bo'lgani yo'q deyapman-ku. Faqat suyagi darz ketgan. Boshqa hech gap yo'q...

– Jon singlim. Xo'p deng endi. Bir minut, bir minut o'tiraman.

Hafizning ovozi tanidim. Qiz javob qilib bo'lguncha Hafiz tepamga kelib oldi, peshanamga kaftini qo'yib ko'rdi.

Qulog'imga shivirladi:

– Suyunchi ber.

Hafiz ko'z qisib qo'ydi-da, qo'yin cho'ntagidan xat oldi. Bu sizning xatingiz edi, Ziyoda. O'rimdan turishga intildim. Hafiz yelkamdan bosib, ko'rsatgich barmog'ini labiga bosdi.

– Jim...

Hafiz kechqurun yana kelishga va'da berib chiqib ketdi.

Hamshira qiz uning ketidan qarab qoldi.

– Yaxshi o'rtog'ingiz bor ekan. Salkam to'rt chaqirim yerdan sizni ko'tarib kelibdi. Bechora shuncha qiynalibdi-yu, haydasak ham ketmaydi.

– Ha, Hafiz yaxshi yigit, – dedim shivirlab.

Qiz chiqib ketgach, xatingizni qayta-qayta o'qib chiqdim. Eh, Ziyoda, Ziyoda! Xatingizni olgan kunim men uchun bayram bo'lib ketishini bilsangiz edi. Uning har bir so'zidan sizning nafasingiz kelib turadi. Har bir satrida sizning tabas-sumingiz, sizning yurak haroratingiz yashiringan. Men uchun hozir siz bilan xayolan suhbatlashishdan kattaroq baxt bormi?!

Ziyoda! Siz Hafizdan uzoqroq yurishimni iltimos qilibsiz. Yo'q, azizam, bilmaysiz. Hafiz avvalgi Hafiz emas. U menga do'st bo'lib qoldi.

Ziyoda, xatimni kechikib yozayotganim uchun xijolat-daman. Nima qilay, qo'limni gipslab qo'yishgan edi. Endi qutuldim o'sha sovuq ombirdan.

Ziyoda, men xat yozyapman-u, yana o'sha xayolparast-likka berilaman. Osmonga tikilaman. Oy allaqachon botib ketgan. Chiroq o'chganida parvonalar g'oyib bo'lgani sin-gari jaji yulduzlar ham ko'rinmay qoldi.

Ufqda bittagina yulduz qoldi. Bu – o'sha tong yulduzi. U o'tdek yonib turibdi. Balki, hozir siz ham deraza yonida o'tirib uni tomosha qilayotgandirsiz. Balki, siz ham menga xat yozayotgandirsiz. Hozir men yulduzga qo'l cho'zib turibman. Nazarimda, tong yulduzi kaftimga qo'nmoqchiga o'xshaydi... Xayr, azizam, xayr.

**Muallif izohi:** *Birinchi muhabbat tip-tiniq bahor osmo-nidagi bulutga o'xshaydi. Pokiza, shaffof... Shamol qayoqqa olib ketishini o'zi ham bilmaydi...*

*Birinchi asar esa, birinchi muhabbatga o'xshaydi. Qis-mati nima bo'lishini o'zi ham bilmaydi. Birinchi muhabbat odamning esidan chiqmagani kabi, birinchi asar ham xoti-raga muhrlanib qoladi. Shaffof, pokizaligi bilan...*

*Bundan qariyb yarim asr avval yozilgan „birinchi mu-habbatim“ni kitobxonlarga taqdim etishga jur'at qildim.*

1963-yil

## MUNDARIJA

Shamollar esaveradi.....	3
Cho'l havosi.....	93